



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI OVOZ BUZULISHIGA EGA BOLALAR BILAN GURUHLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH

Umida O'tbasarova Mexmanovna

Alfraganus universiteti oliy ta'lim tashkiloti
v.b. dotsenti, PhD

Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

Alfraganus universiteti pedagogika va psixologiya fakulteti
defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi ovoz buzilishiga ega bolalar bilan olib boriladigan guruhli mashg'ulotlarni tashkil etishning mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Ovoz buzilishlari bolalarning nutqiy rivojlanishida, shuningdek ularning psixologik holati va ijtimoiy moslashuvda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Guruhliy faoliyat bolalarda o'zaro muloqot, hamkorlik, ijtimoiylashuv, nutqiy faollikni oshirish bilan birga, ularning ruhiy-emotsional holatini barqarorlashtirishga ham xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, logoped, tarbiyachi va psixologning hamkorlikdagi ishlarining samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ovoz buzilishlari, logopedik ish, guruhli mashg'ulot, nutqni rivojlantirish, nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika, ijtimoiylashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article discusses the content and importance of organizing group classes with preschool children who have voice disorders. Voice disorders create certain difficulties in the speech development of children, as well as in their psychological state and social adaptation. Group activities, along with increasing communication, cooperation, socialization, and speech activity in children, also serve to stabilize their psycho-emotional state. The article also reveals the effectiveness of the joint work of a speech therapist, an educator, and a psychologist.

Key words: preschool age, voice disorders, speech therapy, group classes, speech development, breathing exercises, articulatory gymnastics, socialization, psychological support.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и значение организации групповых занятий с детьми дошкольного возраста с нарушениями голоса. Нарушения голоса создают определённые трудности в речевом развитии детей, их психологическом состоянии и социальной адаптации. Групповые занятия, помимо повышения уровня общения, сотрудничества, социализации, речевой активности детей, способствуют стабилизации их психоэмоционального состояния. Также раскрывается эффективность совместной работы логопеда, воспитателя и психолога.

Ключевые слова: дошкольный возраст, нарушения голоса, логопед, групповые занятия, развитие речи, дыхательная гимнастика, артикуляционная гимнастика, социализация, психологическая поддержка.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutq va ovoz faoliyatining shakllanishida muhim davrni boshdan kechiradilar. Bu davrda bolaning to'g'ri talaffuzi, ovozining temбри, balandligi va ohangdorligi rivojlanadi. Ammo ayrim bolalarda turli sabablarga ko'ra ovoz buzilishlari kuzatiladi. Ovoz buzilishi bolaning nafaqat nutq faoliyatiga, balki psixologik holatiga, ijtimoiy muhitga moslashuviga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, logopedik ish jarayonida ovoz buzilishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ovoz buzilishlari – bu nutq apparati faoliyatining buzilishi natijasida tovushning temбри, balandligi, kuchi yoki ohangdorligidagi nuqsonlardir. Ovoz buzilishlari ko'pincha fonasteniya, disfoniya, afoniya, rinolaliya kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bunday nuqsonlarning sabablari ko'p bo'lib, ular anatomik, fiziologik va psixologik omillar bilan bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishlari odatda quyidagi ko'rinishlarda kuzatiladi: ovozning bo'g'iq chiqishi; ovozning baland yoki juda past bo'lishi; nafas olish jarayonidagi buzilishlar natijasida tovush-

ning tez charchashi; rinolaliya (burun orqali gapirish); ovoz tembrining buzilishi. Bu holatlar bolaning nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklar tug'diradi va ularning muloqot jarayonida ishtirokini cheklaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ovoz buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra markaziy va periferik qismlarga bo'linadi, ularning har biri organik va funksional bo'lishi mumkin. Ovoz buzilishlari mexanizmi hiqildoqdagi nerv-muskul apparatida hamda ovoz boylamlarida paydo bo'ladigan gipo- yoki gipertonus va ular harakatidagi o'zgarishlar xarakteriga bog'liq.

Organik ovoz buzilishlari. Organik ovoz buzilishlariga asosan ovoz apparatidagi anatomik o'zgarishlar yoki surunkali shamollash natijasida paydo bo'ladi. Periferik xarakterdagi organik ovoz buzilishlari asosida ovoz apparati kasalliklari: un paychalaridagi tugunchalar, bo'g'iz va un paychalarining papillomatozlari (o'simtalar), bo'g'iz stenozi, jarohatlanishlar, kuyishlar yotadi. Bular periferik xarakterdagi organik ovoz buzilishlarini keltirib chiqaradi. Organik ovoz buzilishlariga, shuningdek, bo'g'iz raki yoki bo'g'iz tuberkulyozida bo'g'izni tibbiy yo'l bilan olib tashlangan kishilarning ovozi ham kiradi. Surunkali laringit uchun hiqildoq muskullari tonusining pasayishi xosdir. L.A. Zaritskiyning ta'kidlashicha, bu kasallikda hiqildoq apparatining muskullari doimiy ravishda kuchli giperkinez holatida bo'lib, ovoz boylamlari kuchli jipslashadi. Shuningdek, gipokinez ham uchrab, unda ovoz boylamlari bo'shashgan, to'liq jipslashmagan holda bo'ladi. Laringitda bemorlar hiqildoqdagi noqulaylik, quruqlik, qirilish, namlikning yig'ilib qolishi, bo'yin va halqum qismida charchash, xirillash, uning kechga borib zo'rayishi va ertalab butunlay yoki qisman yo'qolishidan shikoyat qiladilar. Laringitning og'ir turlarida xirillash doimiy bo'ladi, ba'zan afoniya vujudga keladi.

Kasbiy traxeitlar nutqiy kasb egalarida kuylashda ovoz boylam osti bosimining o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Bemorlar asosan ovozning tez charchashi, traxeyadagi noqulaylik, namlik yoki quruqlik, yo'tal kabi belgilaridan shikoyat qiladilar. Laringoskopiya ovoz boylamlarida hech qanday o'zgarishlar kuzatilmaydi, biroq traxeyaning shilliq qavatining ayrim joylarida giperemiya kuzatiladi. Ba'zi hollarda halqum, hiqildoq va traxeyada kataral holatlar kuzatiladi. Nutqiy kasb egalarida traxeitlar boylam osti bo'shlig'ida suyuqlik yig'ilishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda bemorlar ma'lum tovushlarni talaffuz qila olmaydilar, ovoz toni yo'qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fonosteniya – bu ovozning funksional buzilishi bo'lib, nafas, fonatsiya va artikulyatsiya o'rtasidagi koordinatsiyaning buzilishi bilan xarakterlanadi. Fonosteniyaning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Nafas yo'llarining o'tkir shamollashi, ovozga katta yuklama berish, bosh miya po'stlog'ida tormozlanish fonosteniyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va ovoz apparati mushaklarining harakat funksiyasi buzilishi kuzatiladi.

Bolalar ovozinin rivojlanishi. Bolalar ovozinin rivojlanishi shartli ravishda bir necha davrlarga bo'linadi:

- maktabgacha – 6-7 yoshgacha;
- mutatsiyagacha – 6-7 yoshdan 13 yoshgacha;
- mutatsiya davri – 13-15 yosh;
- mutatsiyadan keyingi davr – 15-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fonatsiya hiqildoq mushaklarining kuchsizligiga bog'liq holda un paychalarining chetlarini taranglashuvi natijasida yuzaga keladi.

Ovoz chiqarish diapazoni 5-6 notadan iborat. Mutatsiyadan keyingi davrda ovoz hosil bo'lishi organlarning anatomik o'sishi va hiqildoq apparatining rivojlanishi bilan parallel ravishda tugallanadi. 12 yoshdan boshlab uning joylashish o'rni va morfologik tuzilishiga ko'ra u kattalarning retseptor apparatiga to'g'ri keladi. Bolalar ovozi asta-sekin tebranadi, uning diapazoni 11-22 notagacha kengayadi. Ovoz mutatsiyasi (lotincha "mutation") balog'at davrida sodir bo'ladi. Testosteron bolaning qoniga ko'p miqdorda kiradi, bu jinsiy gormon glottisning kengayishiga olib keladi, natijada ovoz erkaklarga xos tovush va past chastotani oladi. "Buzilish"dan oldin qizlar va o'g'il bolalarda vokal apparati tuzilishi o'xshashdir. Ma'lum bir yoshgacha bolaning ovozigacha qarab uning jinsini aniqlash mumkin emas.

O'n yoshdan boshlab o'g'il bolalar ovozlari birinchi o'zgarishlarni boshdan kechira boshlaydilar va qizlarga qaraganda pastroq ohangda gapiradilar. Buning sababi shundaki, o'g'il bolalarda bog'lamlar va glottis biroz tezroq o'sadi, shunga o'xshash o'zgarishlar esa ulg'ayishning fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq. 10-12 yosh oralig'ida o'g'il bolalarning glottislari o'rtacha qizlarnikidan atigi yarim millimetr kattalashadi va tovushning tonalligi farqi allaqachon sezilarli bo'ladi. Ovoz o'zgarishi 11-18 yosh oralig'ida bo'lishi mumkin. Keyinchalik mutatsiya ko'pincha o'smirning gormonal foni va erkak sog'lig'ida ba'zi muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Ovoz o'zgarishi odatda ikki oydan ko'proq vaqtni oladi, shu davr ichida ovozning ohang va tembri butunlay o'zgaradi, keyinchalik ular hayot davomida o'zgarmasdan qoladi. Faqat kuyish, og'iz-tomoqdagi shikastlanish yoki yomon odatlarni suiiste'mol qilish natijasida ularni o'zgartirish mumkin.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni milliy ohanglarni idrok etishga o'rgatish, ularning musiqiy savodxonligini oshirish, notalarni sof va toza ovozda kuylash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ko'rgazmali qurollar: musiqa asboblari tasvirlangan rasmlar, bobolarimizdan bizlarga meros bo'lib kelayotgan xalqona ohanglar yozilgan mp3 shaklidagi diskalar.

Tarqatma materiallar: nota qatorlarini sanashga mo'ljallangan maxsus zinacha va rangli tasmalar.

Mashg'ulotning maqsadi: tarbiyalanuvchilarning bilimlarini mustahkamlash, bolalarda ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, do'stlik haqida tushuncha berish, do'stga sadoqatli bo'lishni o'rgatish.

Kerakli jihozlar: olmaxonlar va ularning yong'oqchalari, sehrli eshik va qulf-kalit, tipratikan, qo'ziqorinlar, gullar, rangli qog'oz, qalamlar, qaychi, A4 formatidagi oq qog'oz.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi:

– *Assalomu alaykum, bolajonlar!*

Bolalar:

– *Assalomu alaykum.*

Tarbiyachi:

– *Bolajonlar, bugungi mashg'ulotimizni boshlaymiz.*



2-rasm: Vitaminlar

Maqsad: bolalarga sabzavot va mevalarning tarkibida vitaminlar bo'lishi, ularning foydali xususiyatlari haqida tushuncha berish, kichkintoylar nutqini rivojlantirish uchun she'rlarni yod oldirish, sabzavot va mevalarni bir-biridan ajratishlariga erishish.

Kutilayotgan natijalar:

- vitaminlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- ularning turlarini bilib oladilar;
- vitaminlarning inson organizmiga ta'siri haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
- sabzavot va mevalarning foydasi, ularni qanday iste'mol qilishni o'rganadilar.

“Baland-past” o'yini

O'yinning borishi: Bolalar soniga qarab 2-3 juft o'yinchoq olinadi. Past tovushga taqlid qilganda shivirlashga o'tib ketmaslik kerak.

Tarbiyachi katta va kichik kuchukchalarni ko'rsatib, bolalarga shunday deydi:

– *Katta kuchuk vovilaganda baland ovozda akillaydi: “Vov-vov-vov”. Katta kuchuk qanday akillagan ekan?*

Bolalar baland ovozda:

– “Vov-vov” – deb aytadilar.

Tarbiyachi o'yinni davom ettirib, shunday deydi:

– *Kichkina kuchukcha past ovozda akillaydi: “Vov-vov”. Kichkina kuchukcha qanday ovozda akillar ekan?*

Bolalar past ovozda:

– “Vov-vov” – deb aytadilar.

Tarbiyachi har ikkala kuchuk o'yinchog'ini olib qo'yadi va shunday deydi:

– *Hozir juda ham diqqat bilan quloq solib o'tirib turinglar. Kuchuk paydo bo'lishi bilan siz “vov-vov” deb aytasiz, ammo adashib ketmanglar: katta kuchuk baland ovozda akillaydi, kichkina kuchuk past ovozda akillaydi.*

Xuddi shu tarzda boshqa o'yinchoqlar bilan ham o'yin o'tkaziladi.

XULOSA

Ovoz buzilishlariga ega bo'lgan bolalar bilan pedagogik ishlarni tashkil qilishda korreksiya tibbiy va ruhiy-pedagogik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ovoz – bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin. Biz qanday tovushni olmaylik, barchasi fizik hodisa bo'lib, akustikada o'rganiladi. Tovush yaxshi o'rganilgan bo'lib, uning qonuniyatlari aniqlangan. Kuylovchi yoki nutqiy ovozning birgina tovushi ham akustik ahamiyatga ega. Uni bilgan holda ovozning kerakli xususiyatlarini yuzaga keltirish mumkin. Tovush deganda akustikada tebranish va to'lqinlarning zich muhitda tarqalishi tushuniladi. Ovoz tovushi to'lqin ko'rinishida havo qismlarining tebranishidir. Bu to'lqinlar ovoz boylamlarida yuzaga kelib, ularning bir-biriga yaqin joylashishi va tarangligi natijasida havo oqimi o'tib, boylam osti bosimi yuqori hamda nerv impulslarining ta'sirida tebranish yuzaga keladi.

Tovush to'lqinlari kekirdakda hosil bo'lib, faqat tashqariga emas, balki organizmning ichki to'qimalarida ham tarqalib, bosh, bo'yin va ko'krak to'qimalarida tebranish hosil qiladi. Shu bois ovoz to'lqinlarining bir qismini tashqarida tarqalib, eshituvchining qulog'iga yetib boradi. Ovoz buzilishiga ega bo'lgan bolalar uchun nafas mashqlari kompleksini tuzishda bolalarning ovoz va nafas funksiyasining holatini nazarda tutish lozim, chunki nafas-ovoz mashqlarini o'tkazish tabiiy yo'llar orqali nafas olish va ovoz chiqarish imkoniyatlarining yo'qligi tufayli juda qiyin. Bundan tashqari, bola organizmning astenizatsiyasi mashqlarning qat'iy dozirovkasini, ularning muayyan tempda va ritmda bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2013.
2. Sodiqova Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2009.
3. Aytmetova S.Sh. Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. – T.: “O'qituvchi”, 1984.
4. Mamedov K., Shoumarov G., Podobed V. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. – T., 1999.
5. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – T.: Uzinkomsentr, 2002.
6. Ayupova M. Logopediya. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.
7. Sodiqova Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2009.
8. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2013. – B. 25–29.
9. Muminova L.R., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.
10. Karimova V.M. Logopediya asoslari. – T., 2020.
11. Nurmatova D. Maktabgacha ta'lim muassasalarida logopedik ish. – T., 2021.
12. Raximova Sh. Nutq buzilishlari va ularni tuzatish metodlari. – T., 2019.
13. Internet manbalari: logopedik ish metodikasi bo'yicha ilmiy maqolalar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.